



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

ABDUQAYUM YO‘LDOSHEVNING “YURAKDAGI IZ” QISSASIDA SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI

Husniddin SUYUNOV*

Farhod NIZOMOV*

Annotatsiya

Maqolada yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshevning “Yurakdagi iz” qissasida so‘z qo‘llash mahorati haqida mulohazalar bayoniga bag‘ishlangan. Asar matnida badiiy tasviriy vositalardan, ibora, maqollardan foydalanish usullari, hududiy chegaralangan so‘zlarni ishlatish, sintaktik qurilmalar va kompozitsion xususiyatlarni aniqlash hamda tahlil qilishlarni nazarda tutadi.

O‘zbek adabiyotining navotor yozuvchilaridan biri Abduqayum Yo‘ldoshev o‘zining roman, qissa, hikoyalarining mavzu jihatidan rang-barangligi, qahramonlar taqdirining haqqoniyligi, hayot haqiqatining badiiy matnda rost ifodasi, qahramonlarining samimiy, dali-g‘uli qiyofadagi qahramonlari bilan ajralib turadi. Ijodkor asarlarining yana bir muhim xususiyati shundaki, ular sodda va ravon tilda yozilgan bo‘lib, kitobxonga yengil yetib boradi. Shu bilan birga, muallif o‘z asarlarida chuqur ma’noli, tafakkurga undovchi fikrlarni ifodalashda hamda qahramon ruhiyatini aks ettirishda badiiy tilning nozik imkoniyatlaridan mohirona foydalanadi.

Yozuvchining “Yurakdagi iz” qissasi lisoniy va uslubshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etilganda tilshunoslikda muallif mahorati, individualligini ko‘rsatuvchi umume’tirof etilgan quyidagi jihatlarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Qissada frazeologik birliklarning barcha turlaridan foydalanilgan. Ma’lumki, frazeologik birliklarga – maqol, matal, hikmatli so‘z va iboralar kiradi.

Xalqona iboralardan mohirona foydalanishda, voqelikni obrazli tasvirlashda, uni o‘quvchi tafakkurida aniq va to‘la gavdalandirishda frazeologik iboralarning o‘rni, ahamiyati beqiyosdir. Shu jihatdan, yozuvchi “Yurakdagi iz” qissasida xalq jonli nutqidagi ko‘plab iboralardan unumli foydalanadi. Qahramonlar yashash makoni, kishilar aro munosabatlar, hudud tilini ko‘rsatishda, shuningdek, qahramonlar psixologiyasini aks ettirishda iboralardan unumli foydalanadi.

Xalq maqollarining matndagi ahamiyati bo‘yicha A.Yo‘ldoshevning mazkur qissada individual mahoratini ko‘rsatadigan jihatlardan yana biri bu – xalq maqollaridan ustalik bilan foydalanishdir. Qahramonlarning ruhiy holati, ular mansub bo‘lgan hududning tili, kishilar fe‘l-atvorini tasvirlashda, qolaversa, yozuvchi o‘z

* Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malakasini oshirish markazi Navoiy viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari

* Navoiy davlat universiteti.

asarlarida chuqur ma'noli, o'yga toldiruvchi fikrlarni ifodalashda badiiy tilning nozik imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda maqollardan mohirona foydalanadi.

Kalit so'zlar: adabiy til, uslub, ravon til, xalqona ibora, maqol, kinoya, vulgarizm, varvarizm, matn, qissa, so'z, international so'zlar.

Abduqayum Yoldoshev's "The Trace in the Heart" Novella: The Mastery of Word Usage

Abstract

The article is devoted to the statement of considerations about the skill of using words in the story "Trace in the Heart" by the writer Abdukayum Yuldoshev. It involves the methods of using artistic figurative means, expressions, proverbs in the text of the work, the use of territorially limited words, the identification and analysis of syntactic devices and compositional features.

At the same time, the author skillfully uses the subtle possibilities of artistic language to express deeply meaningful, thought-provoking thoughts in his works and to reflect the character's psyche.

When analyzing the writer's story "Trace in the Heart" from the point of view of linguistics and stylistics, the following aspects can be distinguished, which are generally recognized in linguistics as indicating the author's skill and individuality. The story uses all types of phraseological units. As is known, phraseological units include proverbs, sayings, wise sayings and expressions.

The role and importance of phraseological expressions in the skillful use of folk expressions, in the figurative depiction of reality, in its clear and complete embodiment in the reader's thinking is incomparable. In this regard, the writer effectively uses many expressions from the living speech of the people in the story "Trace in the Heart". The heroes effectively use expressions to show the place of residence, interpersonal relationships, the language of the region, as well as to reflect the psychology of the heroes.

Keywords: literary language, style, colloquialism, folk idiom, proverb, irony, vulgarism, barbarism, text, story, word, international words.

Yozuvchi Abduqayum Yo'ldoshev xalqona iboralardan mohirona foydalanadi. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni o'quvchi tafakkurida aniq va to'la gavdalanitirishda frazeologik iboralarning o'rni, ahamiyati beqiyosdir. "Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat – holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir" (Yo'ldoshev M, 2007, 61-b.). Shu jihatdan, yozuvchi "Yurakdagi iz" qissasida xalq jonli nutqidagi ko'plab iboralardan unumli foydalanadi. Qahramonlar yashash makoni, kishilar aro munosabatlar, hudud

tilini ko'rsatishda, shuningdek, qahramonlar psixologiyasini aks ettirishda iboralardan unumli foydalanadi. "O'roqni qip-qizil tiliga bosmoq", "Joynamoz ustida omonatini topshirmoq", "Go'yo kimdir zuvalamni olishi va pishitishi", "Tovonidan o't chaqnab yurmoq", "Shomonlarga o'xshab raqsga tushmoq", "Besh kunlik umr", "Yettisi, yigirmasi, qirqini o'tkazmoq", "Bitta qo'y so'yib xudoyi qilmoq", "Astag'firullo", "Tabibi g'ayb", "Inshoollo", "O'zbekchilik", "Qo'l olish" kabi an'anaviy iboralar va ijodkor yaratmasi bo'lgan turg'un birikmalar asar pafosi, badiiyligi, konfliktida ahamiyatlidir.

Ular badiiyat jihatidan o'zida ramziylik bilan bir qatorda folklor, qadim an'analarga ishora qiladi. Eng asosiysi, muallifning xalq jonli hayotini, ona tilini, nutqini teran anglashi va ularni badiiy matnda qo'llashini ko'rsatadi.

Ekspressivlikni ifodalovchi vositalar tilimizda ko'plab uchraydi, lekin frazeologizmlar ana shunday xususiyatining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Frazeologizmlar atash ma'nosi va qo'shimcha bo'yoqlarning ajralmas birligidan iborat bo'lgan maxsus nutqiy shakllar hisoblanadi. Frazeologizmlarning ko'pchiligi nutqda ma'lum bir stilistik maqsadlar, ayniqsa, his-tuygu'ni ifodalash uchun xizmat qiladi. Uarda bunday xususiyat kuchli va rang-barang hisoblanadi. Ayni shu jihatlar qissada qo'llangan "Nonini yarimta qilmoq", "Qaytib qorasini ko'rmaslik", "Tuvagi oltindan bo'lmoq", "...eshikning turumini buzish", "Yurakni qoq ikkiga bo'lmoq", "Pashsha uchsa eshitilguday sukunat", "Og'zidan gullab qo'ymoq", "Oldida ip esholmay qolish", "So'rab-so'rab Makkani topmoq", "...terisiga sig'may quvonish" kabi iboralarning o'rnini beqiyos. Bular o'z navbatida muallifning so'z tanlash mahoratidan dalolat beradi. Shu bilan birga, "og'zi qulog'ida", "peshonasi yaraqlagan", "baxti ochilmoq" iboralarida hikoyachining o'zi yaratgan bosh qahramonga ijobiy munosabatini ham anglatadi.

Qissada qo'llangan frazeologizmlardan anglashilgan ma'no ko'p qirrali va shu bilan bir qatorda o'ta ta'sirchandir. Ular asarning umummatni bilan yuksak pafos va tilning lug'at boyligini oshirishga xizmat qilgan.

Yozuvchi xalq maqollarining matndagi ahamiyati alohida to'xtaladi. A.Yo'ldoshevning mazkur qissada individual mahoratini ko'rsatadigan jihatlardan yana biri bu – xalq maqollaridan ustalik bilan foydalanishdir. Qahramonlarning ruhiy holati, ular mansub bo'lgan hududning tili, kishilar fe'l-atvorini tasvirlashda, qolaversa, yozuvchi o'z asarlarida chuqur ma'noli, o'yga toldiruvchi fikrlarni ifodalashda badiiy tilning nozik imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda maqollardan mohirona foydalanadi. "Yemoqning qusmog'i ham bor, o'tniki o'tga, suvniki suvga", "Ixlos – xalos", "Yomon xabarning qanoti bo'ladi", "Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan", "Yaxshiga yondash, yomondan qoch", "Qo'shning tinch – sen tinch" kabi barqaror birikmalar yuqorida nazarda tutilgan ma'nolarni o'zida to'lig'icha aks ettiradi.

A.Yo‘ldoshev asarlarida sodda va ravon til ahamiyatini qaratadi. Qissalarining tili va uslubidagi eng muhim xususiyat – bu soddalik va ravonlikdir. Yozuvchi murakkab konstruksiyalar, notanish so‘zlardan qochadi, buning o‘rniga oddiy, kundalik turmushda ishlatiladigan so‘z va iboralarni tanlaydi. Bu esa o‘z navbatida asarning kitobxonga yengil yetib borishini ta‘minlaydi. Asarda monolog va diaologlarning tabiiy va jonli chiqqanligi muallif nasrining sodda va ravonligini ifodalaydi.

Qissada qahramon monologlari ko‘p uchraydi. “Yuragim daxshatli darajada siqilib qolib ketdi. Beixtiyor o‘zinga o‘zim savol berdim: “Men nima qilib yuribman bu tupkaning tubida? Uyim bo‘lsa, joyim bo‘lsa, xotinim bo‘lsa...Pishirib qo‘yibdimi menga allaqanday telbalar-u buzuqlar orasida? Axir men xislat so‘ramaganman, bor-yo‘q niyatim el qatori, tinchgina umr kechirish edi, xolos...” (Yo‘ldoshev, 2011, 44-b.), o‘kinchlari uning ekstrasenslik faoliyatidan noroziligi seziladi, shuningdek, bu odamning o‘z taqdiriga qarshi isyonidir. Yoki “Menga da‘vo kerak emas. Aslo. Men o‘lmoqchiman. Men bu yorug‘ dunyoni, mana shu ko‘kda jimirlab turgan sonsiz yulduzlarni, bulutlar ostidan mo‘ralayotgan hilolni, anov yuksak tog‘larni, baland qirlarni, mana shu ona qishlog‘imni, ota-onamni, aka-ukalarimni, xotinimni, farzandlarimni, do‘st-birodarlarimni – hamma-hammasini o‘z ixtiyorim bilan tashlab ketmoqchiman.

Qo‘lim qaltiramoqda, yoshlangan ko‘zlarimni qanachlik tikmayin, oppoq qog‘oz xira tortib, harflar chaplashib ketmoqda. Demak, fursat yaqin. Nihoyat, nihoyat yetib kelmoqda men kutgan daqiqalar. Men bu dunyoni tark etaman. Quvonchim shuki, men o‘zim, o‘z ixtiyorimga ko‘ra tanlagan ajal sharpasini tuymoqdaman” (Yo‘ldoshev, 2011, 6-b.), monologi ham asarning g‘oyaviy jihatdan puxta tasvirlanganligini ko‘rsatadi.

Ushbu matnda ishlatilgan uyushiq bo‘laklar, mustaqil va alohida olingan (undov, modal) so‘zlarning qo‘llanilishi, fe‘l hamda olmoshlarning takroriyiligi, ko‘plik va egalik qo‘shimchalari qissa tilining puxtaligidan dalolatdir. Shuningdek, bu parchalar orqali muallif kundalik hayotda ko‘p bor qo‘llanadigan sodda so‘zlar bilan xalq hayoti, qahramon ichki olami, insonlararo munosabatini ishonchli tasvirlaydi.

Asarda ko‘plab diniy ma‘rifiy va folklor motivlari uchraydi. Ular orqali muqaddas diniy qarashlarga, xalq ichidagi turli an‘analarga ishoralar seziladi. Ba‘zilar uchun xurofot, yolg‘on bo‘lib tuyilgan qarash va irimlar asar qahramonlari hayotida ma‘lum voqelikka, aytish joizki, hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yo‘dosh baxshining umri poyonida kimnidir kunlab intiq kutishi, Erjigit kelgach, bobo va nabira o‘rtasidagi suhbat asarning kulminatsion nuqtasidir. “Og‘zingni och, – deb buyurdi. Ochig‘i, bu gapdan kulgim qistadi. Ammo to‘qsonga yaqinlashib qolay degan bu “go‘dak”ning aytganini qilmaslikning iloji yo‘q edi. Shu sababli noiloj

og‘zimni ochdim. Hamon yodimda. Oramiz ikki qadamcha edi. Bobom menga diqqat bilan qarab turdi-da, so‘ng kutilmaganda: Tup, tup, – deb menga qarab ikki marta tupurdi. To‘g‘risi, bu ramziy tupurish edi. Og‘zi quruqshab turgan ekanmi, bobomning og‘zidan bir tomchi ham tupuk chiqmadi. Otam bezovtalanib, jon holatda oldimga o‘tib, meni gavdasi bilan to‘sarkan:

– Shuni bekor qildingiz-ov, ota, – dedi. Bunga javoban bobom tuyqus yengil tortgan odamday mayin kulimsiradi:

– Shu bola mening qo‘limni olsin... Otam birdan mung‘ayib qolib, bobomga e‘tiroz berishga urindi: Bu oson emas, ota... Hamma osoniga o‘zini uraversa, qiyini kimga qoladi, bolam, – dedi bobom hamon mayin jilmaygancha. Peshonasida borini ko‘radi endi...” (Yo‘ldoshev, 2011, 14-b.), voqeligi xalq orasida mashhur, avliyosifat kishilarga yoki ishi yurishgan odamlarga “shuning ham og‘ziga bir tupuring” – deyishiga ishora.

Mazkur jarayon diniy ruhdagi ramziylik, boboning tilagi amalga oshib, yigit hayotida ham qiziq, ham ziddiyatli kunlar boshalandi. Mazkur dialog matnidagi so‘zlar, muloqot shakli, ifodalangan mazmun, ota – farzand – nabira o‘rtasidagi so‘zlashuv jarayonidagi turli qo‘shimchalar qissa tilining tushunarligini, uslubiy jihatdan badiiy, so‘zlashuv uslublarining qorishiq qo‘llanganligidan dalolat beradi. Bu esa qissada ona tilimizning jozibasi, xalq tilining nozik xususiyatlari aks ettirilganligining dalili hisoblanadi.

Qissada bir qancha ramziy obraz, tushunchalar hamda diniy-ma‘rifiy so‘zlar qo‘llangan “Ko‘z yoshlarim daryo bo‘lib, baliqlar yutsin seni” jumlasini asar qahramonining hamma voqelik ochiqlangach, uning ruhiyatini va jamiyatda yolg‘izlanib qolganligiga ishora; “Ajal sharpasini tuymoq”, “Mo‘ralayotgan hilol”, “Ko‘z oldini qora tuman bosmoq”, “Besh kunlik umr”, “Dorul fanodan dorul baqoga rixlat qilish”, “Mayiti sayoq itniki singari xor bo‘lmoq” – Erjigitning hayot onlarining yakuni, oxirat haqidagi o‘ylari ramzi bo‘lib kelgan. Bu kabi simvollar ham matnning lisoniy keng ma‘noga egaligini ko‘rsatadi.

Yozuvchining xalq jonli tilidagi shevaga oid, ruscha internatsional so‘zlar hamda kinoyaviy ma‘nodagi jumalardan unumli foydalanishi mahorati. Dialektal so‘zning badiiy matnga olib kirilishi yozuvchidan katta mahorat talab qiladi. Asarda emotsional-ekspressiv so‘zlarning salbiy va ijobiy bo‘yoqqa ega shakllaridan foydalanilgan. Shuning bilan birga, yozuvchi emotsional-ekspressivlikka ega bo‘lmagan so‘zlardan ham nutq vaziyati bilan bog‘liq tarzda o‘ziga xos ekspressivlik hosil qilishga erishgan. Bularning barchasi asarning xalq jonli tiliga yaqinligidan dalolat beradi.

“Yetim qolgan uch farzand, nainki uch norasida, balki marhum hamda marhumaning xesh-urug‘lari, tanish-bilishlari, hattoki mazkur voqeadan boxabar bo‘lgan butkul begonalar ham meni “qotil”, deb atashmoqda”; (Yo‘ldoshev, 2011,

18-b.). “Ana shunday odamlar sabab laqabim “Tomi ketgan”, “99”ga aylandi. Bularning bariga tishimni tishimga qo‘yib chidashga majbur edim” (Yo‘ldoshev, 2011, 24-b.). “Bu yerda qolib nonimni yarimta qiladigan bo‘lsang, ko‘radiganingni ko‘rasan! O‘rgildim sendaqangi “diagnozchi”dan”; (Yo‘ldoshev, 2011, 29-b.). “Tentak” laqabi bilan katta qishloqda bosh ko‘tarib yurish oson emas edi”, “...bu dunyoda cho‘pon zotidek bag‘rikeng inson bo‘lmas ekan”, “Buyragim “pristup” beryapti, tuni bilan issiq g‘isht bosib chiqdim, foyda bermadi...”, “...pul ortiqcha “problema”larni o‘ziga torti olarkan...”, “Shef”ning “dux”i juda chatoq ko‘rinadi...”, “Ammo to‘qsonga yaqinlashib qolay degan bu “go‘dak”ning aytganini qilmaslikning iloji yo‘q edi” singari birlikda nazarda tutilgan xususiyatlarni topish mumkin. Darhaqiqat, asarda vulgarizm, varvarizm, kinoyaviy so‘zlar tinglovchi yoki o‘zga subyektga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lganida yoki ayrim shaxslarning kirdikorlarini ochish lozim bo‘lgan paytlarda qo‘llanilgan, shuningdek, vulgarizmlar ba’zi bir qahramonlar qiyofasini tasvirlovchi bo‘yoq vazifasini ham bajargan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ibora, maqollar, qo‘llanilish doirasi chegaralangan (dialektizm, varvarizm, vulgarizm) so‘zlari ekspressivlikka boy bo‘lgan nutqiy shakllardan bo‘lib, ular orqali ifodalanadigan ma’nolar ko‘p qirrali va rang- barang hisoblanadi. Abduqayum Yo‘ldoshevning “Yurakdagi iz” qissasida leksik birliklar yozuvchi uslubining ekspressivligini ta’minlaydi va bu so‘z qo‘llash xususiyatlariga, yangi tasvirlar hosil qilish jihatidan o‘ziga xoslikni tashkil qiladiki, bu holat boshqa asarlardan tilshunoslikda so‘z tanlash, uslub nuqtayi nazaridan farqini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Yo‘ldoshev M. (2007). *Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari*. Toshkent.

Yuldosheva O. (2024). O‘zbek xalq maqollarining tilshunoslikda o‘rganilishi. *Volume 4, Issue 7: Special Issue (EJAR) ISSN 2181-2020*. Toshkent.

Yo‘ldoshev A. (2011). *Alvido, go‘zallik. Qissa va hikoyalar*// Yurakdagi iz. “O‘zbekiston” NMIU. Toshkent.

<https://cyberleninka.ru/article/n/xalq-maqollarining-oziga-xos-xususiyatlari>